



JADIDLAR VA ULARNING HOZIRGI DAVLATCHILIGIMIZGA QO`SHGAN
HISSALARI

Norboyev Durbek Bahodirovich

*O`zbekiston Respublikasi Davlat Jahon tillari akademik litseyi yurisprudensiya
yo`nalishi 1-kurs o`quvchisi.*

“Vaqtigizni devorga urib, undan eshik paydo qilishga sarflamang”

COCO CHANEL

Kalit so`zlar: *Jadidlar, ijtimoiy, davlatchilik, xonlik, Buhoro, boshqaruv, ijtimoi-iqtisodiy, yoshlar, Turkiston, marifatparvarlik.*

Jadidlar qisqa muddat bo`lsa ham millat uyg`onishi va xurqish bo`lishiga o`z hissalarini qo`shgan. Jadidlar XX asr da millatimizni rivojlanishi uchun jadidchilik maktablarini vac het mamlakatlarga yuborishni rejalashtirgandi va bu yo`lida hattoki Balshiviklarga qarshi chiqishgan , va bu bilan Xalqimizga (ya`ni o`sha Turkiston ga misli ko`rinmagan devor bo`ldi.)

Jadid so`zi arabchadan olingan bo`lib “yangi” degan ma`noni anglatadi.

XIX- asr oxiri XX asr boshlarida (Kavkaz, Tatariston da ijtimoiy-siyosiy) harakat vujudga keldi. Jadidchilik keng tarqalishida Ismoil Gosprenskiy tashkil qilgan Tarjimon gazetasini o`rni katta. 1893-yilda Samarqand, Buxoro, Toshkentga tashrif buyuradi. U Amur Abdul Ahadni jadidlar maktabini tashkil qilishga davit etadi, va hu bilan birga Andijonda Shamsul domla, Qo`qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori, Samarqandda Abduqodir Shahuriylar birinchi bo`lib jadidchilik maktablarini ochadi, Behbudiy, Munavvarqori , Cho`lpon, Abdulla Avloniylar jadidlar maktabi uchun darsliklar yaratishadi. Jadidchilik nafaqat o`sha Turkiston yoshlariga balki XX asr dagi katta renessans ga turtki bo`ldi desak mubolag`a bo`lmaydi. Jadidchilikning keng tarqalishida asosiy sababchi matbuot hisoblanadi. Uni e`tibor qaratadigan tarafi shundaki u hozrgi ijtimoiy tarmoqlar kabi ommaga tez tarqalgan. Matbuotni maqsadi ommaviy xurlik tarafga yetaklash , milliy mustaqillikga erishish edi. Keyingi qismda gazetada nashr etiladigan nashrlar turli xil kontentlar bilan boyitish zarur edi, va bu dolzarb masala edi. Jadidchilik avval ma`daniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, “Turkiy tillarni” rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy bilimlarni o`rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar huquqlari tenglashishiga chaqirishgan, Keyinchalik jadidchilar “Panturkizm” g`oyalarini targ`ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “Burjua-libereal, millatchilik harakati” deb ta`rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyondalari nomi SSR parchalanib ketgandan keyin qayta tiklandi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo`nalishiga ko`ra, uchga bo`linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi.



“TURKISTON”. Jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o`rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o`lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini “ziyolilar” tashkil qilgan. Ular CHOR ROSSIYASINI mustamlakachiligiga qarshi kurashishining oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirgan Turkistonning dastlab muxtor, so`ng mustaqil davlat bo`lishini yoqlab chiqdilar.

“BUXORO”jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og`ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: Ziyolilar, mullalar, mayda do`kondorlar va ma`murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarining dehqonlar va askarlar o`rtasida avvalgiga nisbatan nufuzi past bo`lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator taloblar, Chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo`lishdi. Buxoroda Vobkentlik Jo`raboy ilk yangi usul maktablarini ochgan edi. Dastlab Buxorodagi jadidchilik harakatlari aholiga uncha hush kelmadi, chunki qo`shimcha kuchsiz ya`ni(moliyasiz) hech narsa qilib bo`lmasligini bilishardi. Ammo shunga qaramasdan jadidlarimiz qo`llaridan kelgan barcha usullardan foydalanishdi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, hart qanday yangilik va islohatlarning dushmani bo`lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqishdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga :Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilar ga bo`lingan.

1908-yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzulib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug`ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abdusaidov), Usomonxo`ja Po`latxo`jayev (Usmonxo`ja), Hamidxo`ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa`diy shirkatning tashkilotchilari edi. 1909- yil dekabrda jadidlar Buxoroda “Tarbiyai atfol”, (Bolalar tarbiyasi) maxfiy jamiyatini tuzishdi asoschilari (Abdulvohid Burhonov, Hamidxo`ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rofe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi “Buxoro ta`mimi maorif jamiyati” bo`limiga o`qishga jo`natdi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo`lsa ham, Amirlikdagi og`ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

Buxorodagi jadidchilik harakati keskin tus oldi bunda jadidchilik uyushmalari milliy rivojlanish yo`lida turli xil maxfiy uyushmalar tuzadi. Buxorodagi jadidlarimiz hozirgi kabi yoshlarga katta imkoniyatlar yaratishga harakat qilishadi va yoshlarni chet el davlatlariga ilm olishga jo`natishadi. Bu yerda ham Jadidlarimizni mukammal harakati hozirgi davlatchiligimizni yaqqol misoli bo`ladi. Ammo bu shaxslar qurol- yarog`siz bolshiviklarga qarshi turolishmadi. Ammo bu bilan ular taslim bo`lishdi degani emas balki ular bu yo`lida o`zlarini fido qilishdi.

XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U buyerde asosan ikkita oqimdan iborta edi. Uning o`ng oqimi Xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoati korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini o`ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islom Xo`ja boschilik qilgan. Jadidchilikning o`ng oqimi o`z oldiga mamlakatda xon



hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berish maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmayodolar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular xiva xonligida yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'ytishgan edi. 1904-yil "Jamiyatai xayriya" tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda) Xiva jadidlari marifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan.

Xiva dastlabki jadidlar ko'rib turganingizdek iqtisodiyotga e'tibor qaratayotgan bo'lib bunda Xivada turli xil maktablar ochishgan va bozor munosabatlariga erkinlik yaratishgan. Aytib o'tilganidek xayriyalarni tashkil etishdan asosiy maqsad, ko'plab Xivadagi aholini dunyoviy hamda diniy bilimlarni yanada oshirishga qaratilgan edi.

Bu uchala jadidchilik harakati va qilgan ishlari har xil bo'lgani bilan hozirgi davlatchiligimizga qo'shgan hissalar juda katta. Agarda hozirgi paytda ham ya'ni kompyuterlar rivojlangan davrda ham bo'lganda, Biz hozir jahonning oldi o'rinlarida turgan bo'lardik. Chunki jadidlarimizning shunaqangi fikrlari bilan kompyuterlarni birgalilikda olib borganimizda hozir bizda ijtimoiy hayot ancha yaxshi bo'lar edi.

O'zbekiston matbuoti turkiston tarixidagi jadidchilik harakati bilan juda tabiiy bog'lanadi. Aslida jadidchilik ancha chuqur murakkab ziddiyatli ayni damda yangiliklarga ezgu orzu niyyatlarga amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy siyosiy adabiy marifiy harakatdir. Matbuot bu jadidchilik harakatining asosiy ko'makdoshi hisoblangan. Chunki gazetalar xalqqa juda tez tarqalgan va bir muncha jadidchilik harakatidan behabar bo'lishgan.

Turkiston jadidlarni birlashtirishda O'rta Osiya jadidlarning otasi deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1875 chi yilning 19chi yanvarida Samarqand yaqinida Baxhitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand so'ngra Buhoro madrasalarida taxsil olib Imom Xatib, Qozi keyin Muftiy darajasiga ko'tarildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Turkistonda marifatparvarlik harakating rivojlanshiga katta xissa qo'shgan shaxs xisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga Behbudiy kutubxonasi deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Mahmudxo'ja Behbudiy asli ismi (Mahmudho'ja Behbudiy ibn Behbuxo'ja.) (20-yanvar 1875 Samarqand 25-mart 1919 Qarshi) dramaturg, din va jamoat arbobi jadidchilik harakati yetakchilaridan biri. U Yassaviy avlodidan. 18yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko'tarildi. Behbudiy haj safarida bo'lgan chog'ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899-1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikrni mustahkamlab bordi. Samarqand yaqinidagi Holvoyi qishlog'ida Ajiziy, Rajobminda Abdulqodir shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon Ufaga borib (1903-1904), uyerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, Latar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Shu o'rinda Behbudiy shu jadidchilik yo'lida amaliy shiori bo'lgan "Agar biz yaxshi mullar [larni,



Diniy arboblarni tayyorlamoqchi bo'lsak, yoshlarni Misrga jo'natishimiz lozim. Agar biz injener , vrach, va boshqa soha vakillarini tayyorlamoqchi bo'lsak , yigit-qizlarni Yevropa mamlakatlariga yuborishimiz kerak", degan shiori bo'lgan.

“Jadidlarga nisbatan nafrat shakllangan”Jadidlar endi paydo bo'lgan vaqtlarda ular xalqning ko'ziga yomon ko'rinishgan. “Nega bu gazetani chiqarishyapti ?” Maktab madrasalarimiz bo'la turib nima uchun yana maktab ochishyapti ? Ularning maktabida globus degan narsa bor ekan. Yerning ham shari bo'ladimi? Bular kofirlarning malaylari degan turli gap so'zlar bilan jadid maktabi teartining ochillishiga, ayollarning sahnaga chiqishiga qarshilik ko'rsatishgan.

1927-yildan juda ko'p ayollar maktablarida o'qish jamoat ishlarida qatnashish, fabrikalarda ishalsh uchun paranjisini tashlashadi. Bu ayniqsa dindor qatlamga yoqmaydi. Aholini xususan xotin qizlarni qo'rqitish uchun Tursunoy , Nurxon kabi sahnaga chiqqanlar o'ldiriladi. Masalan Nurxonni o'z akasi 36 ta joyiga pichoq urib o'ldirgan. Bu kabi halokatlarga jadidlar sababchi bo'lyapti deb ularni qoralashgan. Xalqning avom qismida jadidlarga nisbatan nafrat shakllangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
- 2) Yoshlarg'a murojaat (Mahmudxo'ja Behbudiy) kitobi , 17-21betlar, 2022.
- 3) <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tarix/turkistonda-jadidchilik-harakati-va-uning-vazifalari>
- 4) Jadidchilik-yangicha harakat (Halim Sayyid) kitobi, 37-38 betlar.